



*2024- yil yanvar-fevral oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 170474,1 ming AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 87483,7 ming AQSH dollariga yoki 2,1 martaga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 170474,1 **+2,1 m.**
(2023- y.: 82990,4)




Saldo

2024- y.: -25730,5
(2023- y.: 23358,2)




Eksport

2024- y.: 72371,8 **+36,1 %**
(2023- y.: 53174,3)



Import

2024- y.: 98102,3 **+3,3 m.**
(2023- y.: 29816,1)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.













TSAda eksport hajmi 72371,8 ming AQSH dollariga (36,1 % ga ko‘paydi) va import hajmi 98102,3 ming AQSH dollariga (3,3 martaga ko‘paydi). Hisobot davrida 25730,5 ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)

XXR	Rossiya Federatsiyasi	Turkiya	Niderlandiya	Ekvador
TSA – 48621,0	TSA– 17174,2	TSA – 15189,8	TSA – 13347,1	TSA – 12058,1
Eksport: 5712,0 Import: 42909,0	Eksport: 12426,1 Import: 4748,1	Eksport: 12649,0 Import: 2540,8	Eksport: 43,3 Import: 13303,8	Eksport: 0,0 Import: 12058,1
 28,5 %	 10,1 %	 8,9 %	 7,8 %	 7,1 %










AQSH	Pokiston	Germaniya	BAA	Misir
TSA – 8133,6	TSA – 8115,1	TSA – 7767,1	TSA – 4669,3	TSA – 4263,8
Eksport: 7646,0 Import: 487,6	Eksport: 4493,5 Import: 3621,6	Eksport: 0,0 Import: 7767,1	Eksport: 4306,2 Import: 363,1	Eksport: 4263,8 Import: 0,0
 4,8 %	 4,8 %	 4,6 %	 2,7 %	 2,5 %











Qashqadaryo viloyati jahonning 61 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (28,5 %), Rossiya Federatsiyasi (10,1 %), Turkiya (8,9 %), Niderlandiya (7,8 %), Ekvador (7,1 %), AQSH (4,8 %) va Pokistonda (4,8 %) qayd etilgan.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari)


	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	XXR	16499,2	8564,6	48621,0
	<i>Eksport</i>	3690,8	1031,0	5712,0
	<i>Import</i>	12808,4	7533,6	42909,0
	Rossiya Federatsiyasi	10883,7	12443,4	17174,2
	<i>Eksport</i>	7209,7	8812,5	12426,1
	<i>Import</i>	3674,0	3630,9	4748,1
	Turkiya	22045,4	19545,5	15189,8
	<i>Eksport</i>	15957,1	15421,9	12649,0
	<i>Import</i>	6088,3	4123,6	2540,8
	Niderlandiya	225,1	47,2	13347,1
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	43,3
	<i>Import</i>	225,1	47,2	13303,8
	Ekvador	139,0	141,6	12058,1
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	139,0	141,6	12058,1
	AQSH	182,4	278,2	8133,6
	<i>Eksport</i>	2,2	1,8	7646,0
	<i>Import</i>	180,2	276,4	487,6
	Pokiston	1856,5	2328,1	8115,1
	<i>Eksport</i>	1772,6	1872,2	4493,5
	<i>Import</i>	83,9	455,9	3621,6
	Germaniya	1746,0	692,3	7767,1
	<i>Eksport</i>	959,6	61,8	0,0
	<i>Import</i>	786,4	630,5	7767,1
	BAA	344,1	5868,0	4669,3
	<i>Eksport</i>	297,7	5868,0	4306,2
	<i>Import</i>	46,4	0,0	363,1
	Misr	486,9	2003,2	4263,8
	<i>Eksport</i>	486,9	2002,6	4263,8
	<i>Import</i>	0,0	0,6	0,0

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Eron Islom Respublikasi	4268,2	1343,5	3961,5
	<i>Eksport</i>	2743,7	1231,5	3337,9
	<i>Import</i>	1524,5	112,0	623,6
	Polsha	2135,4	3660,3	2683,7
	<i>Eksport</i>	1482,6	3474,4	2658,0
	<i>Import</i>	652,8	185,9	25,7
	Tojikiston	1877,3	572,6	2151,8
	<i>Eksport</i>	95,5	428,1	2029,3
	<i>Import</i>	1781,8	144,6	122,5
	Qozog'iston	3728,0	5917,7	2131,4
	<i>Eksport</i>	1638,0	1753,7	1471,4
	<i>Import</i>	2090,0	4164,0	660,0
	Hindiston	1573,5	3464,1	1914,8
	<i>Eksport</i>	983,6	3043,1	489,4
	<i>Import</i>	589,9	421,0	1425,4
	Yaponiya	1835,4	250,6	1851,0
	<i>Eksport</i>	161,5	0,0	0,0
	<i>Import</i>	1673,9	250,6	1851,0
	Litva	125,6	57,1	1809,0
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	99,2
	<i>Import</i>	125,6	57,1	1709,8
	Vetnam	576,7	1846,9	1596,8
	<i>Eksport</i>	576,6	1785,1	1527,0
	<i>Import</i>	0,1	61,8	69,8
	Kanada	197,2	231,4	1415,4
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	284,4
	<i>Import</i>	197,2	231,4	1131,0
	Bangladesh	0,0	0,0	1384,7
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	1384,7
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0




QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-fevral oylari ming AQSH doll.)*



Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



2023- y.


2024- y.

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Qarshi shahri 25,2 % ulush bilan 43024,8 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Mirishkor tumani 0,1 % ulush bilan 204,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 14,1 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-fevral oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 marta ko'paygan va jami TSAdagi ulushi 85,9 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra, 23976,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 17818,3 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 6158,0 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)

Rossiya – 71,6



Qozog'iston – 8,9



Tojikiston – 9,0



Ozarbajjon – 3,0



Ukraina – 1,3



Moldova
Respublikasi – 2,5



Qirg'iz
Respublikasi – 2,2



Turkmaniston – 0,6



Belarus
Respublikasi – 1,0




Armaniston – 0,0



Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (71,6 %), Tojikiston (9,0 %) hamda Qozog'iston (8,9 %) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-fevral oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 20055,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 14151,0 ming AQSH dollari, import hajmi esa 5904,9 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral oylari)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 90 taga yetdi va ular tomonidan 72371,8 ming AQSH dollari qiymatini hamda (2023- yilning mos davriga nisbatan 36,1 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral oylari ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-fevral oylari yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	53174,3	72371,8	117,3	136,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5974,4	6933,5	96,8	116,1	11,2	9,6
Ichimliklar va tamaki	-	6,9	-	-	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xom ashyo materiallari	6302,9	3689,8	144,7	58,5	11,9	5,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5775,1	14694,6	2,3 m.	2,5 m.	10,9	20,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	131,8	59,1	42,3	44,8	0,2	0,1
Sanoat tovarlari	31390,5	42317,4	105,9	134,8	59,0	58,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	757,3	663,1	126,3	87,6	1,4	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	2196,1	3493,6	2,6 m.	159,1	4,1	4,8
Boshqa tovarlar	0,3	-	-	-	-	-
Xizmatlar	645,9	513,8	69,2	79,5	1,2	0,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 % ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (58,5 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (20,3 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-fevral oylari)

 <p align="center">XSST bo'limi nomi</p>	<p align="center">Ming AQSH dollari</p>	<p align="center">2023- yilning mos davriga nisbatan, % da</p>
<p align="center">Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</p>	<p align="center">6933,5</p>	<p align="center">116,1</p>
<p>Sabzavotlar va mevalar</p>	<p align="center">6933,5</p>	<p align="center">116,1</p>
<p align="center">Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</p>	<p align="center">3689,8</p>	<p align="center">58,5</p>
<p>To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari</p>	<p align="center">1656,5</p>	<p align="center">50,2</p>
<p>O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo</p>	<p align="center">294,4</p>	<p align="center">25,9</p>
<p>Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari</p>	<p align="center">142,4</p>	<p align="center">7,7</p>
<p>Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar</p>	<p align="center">17,9</p>	<p align="center">6,1 m.</p>
<p align="center">Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</p>	<p align="center">14694,6</p>	<p align="center">2,5 m.</p>
<p>Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar</p>	<p align="center">14694,6</p>	<p align="center">2,5 m.</p>


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	42317,4	134,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	18932,7	151,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	3,0	1,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2,6	-
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,6	-
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	663,1	87,6
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	379,8	130,1
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	0,1	-
Turli xil tayyor buyumlar	3493,6	159,1
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1890,3	2,7 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	2,7	-
Xizmatlar	513,8	79,5


O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,0 % ga ko'paygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral oylari ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 ■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari
2024- yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Pokiston, Eron, BAA va Misr kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 65,3 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral oylari % da)






QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-fevral oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Turkiya	15421,9	12649,0	96,6	82,0	1	1
Rossiya Federatsiyasi	8812,5	12426,1	122,2	141,0	2	2
Amerika Qo'shma Shtatlari	1,8	7646,0	81,8	4247,8 m.	17	3
XXR	1031,0	5712,0	27,9	5,5 m.	11	4
Pokiston	1872,2	4493,5	105,6	2,4 m.	7	6
Birlashgan Arab Amirligi	5868,0	4306,2	19,7 m.	73,4	3	7
Misr	2002,6	4263,8	4,1 m.	2,1 m.	6	5
Eron Islom Respublikasi	1231,5	3337,9	44,9	2,7 m.	10	9
Polsha	3474,4	2658,0	2,3 m.	76,5	4	8
Tojikiston	428,1	2029,3	4,5 m.	4,7 m.	15	11
Vetnam	1785,1	1527,0	3,1 m.	85,5	8	13
Qozog'iston	1753,7	1471,4	107,1	83,9	9	10
Bangladesh	0,0	1384,7	-	-	-	12
Afg'oniston	850,4	1323,7	32,6	155,7	13	14
Portugaliya	0,0	1262,0	-	-	-	16
Marokash	899,6	1254,2	-	139,4	12	15
Ozarbajjon	434,8	685,4	64,1	157,6	14	18
Moldova Respublikasi	191,7	605,3	32,1	3,2 m.	16	17
Hindiston	3043,1	489,4	3,1 m.	16,1	5	19
Ruminiya	0,0	464,0	-	-	-	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral oylari ming AQSH doll.)*



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 26,3 % bilan 19043,2 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mirishkor tumani 0,2 % bilan 116,5 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-fevral oylarida 14,8 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,2 martaga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (39,8%), Rossiya (23,7 %), Afg'oniston (18,0 %), hamda Qozog'iston (15,4 %), davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-fevral oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 6,8 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 19,3 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral oylari o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Piyoz</p> <p>2,1 mln. AQSH dollari</p> <p>9,3 ming tonna</p> <p>15029,0 m. ↑</p> 	<p>Karam</p> <p>1,0 mln. AQSH dollari</p> <p>2,8 ming tonna</p> <p>5,0 m. ↑</p> 	<p>Loviya</p> <p>1,6 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p>33,3 % ↑</p> 	<p>Uzum</p> <p>0,3 mln. AQSH dollari</p> <p>0,2 ming tonna</p> <p>62,5 % ↓</p> 
<p>Pomidor</p> <p>0,4 mln. AQSH dollari</p> <p>0,2 ming tonna</p> <p>20,0 % ↓</p> 	<p>Sabzi</p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,5 ming tonna</p> <p>698,0 m. ↑</p> 	<p>Bodring</p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p> <p>100,0 % ↑</p> 	<p>Sitrus mevalar</p> <p>0,1 mln. AQSH dollari</p> <p>0,02 ming tonna</p> <p>50,0 % ↓</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-fevral oylari)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	8,0	2708,5	39,8
 Rossiya	1,4	1610,5	23,7
 Afg'oniston	1,1	1222,7	18,0
 Qozog'iston	3,6	1046,7	15,4
 Iroq	0,1	46,8	0,7
 BAA	0,1	33,5	0,5
 Turkiya	0,02	15,4	0,2
 Boshqa davlatlar	0,5	114,7	1,7

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokiston davlatiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 39,8 % ni), bu ko'rsatkich Turkiya eksport hajmidan 199,0 barobar ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.






Xususan, 2024- yil yanvar-fevral oylari yakuni bo‘yicha 48684,3 ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 67,3 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 36,6 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (7,2 %), sintetik va jun tolalar (5,3 %) asosiy ulushni egallagan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-fevral oylari ming AQSH dollari)


	Jami	35638,1	48684,3
 Kiyim-kechak		1902,0	3490,8
 Sintetik, jun tolalar		1811,9	2574,0
 Ipak, paxta, jundan tayyorlangan matolar		929,0	443,6
 Sintetik ip kalava		34,4	64,2
 Paypoq mahsulotlari		-	-

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral oylari ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 513,8 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 20,5 % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (62,0 %), boshqa xizmatlar (37,4 %) va safarlar (turizm) (0,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 98102,3 ming AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,3 martaga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (51,7 %) oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,5 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (17,8 %), hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-fevral oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 68286,2 ming AQSH dollariga ko'paydi va 98102,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-fevral oylari yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	29816,1	98102,3	78,2	3,3 m.	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsu lotlari va tirik hayvonlar	1895,7	19177,6	91,4	10,1 m.	6,4	19,5
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	1632,6	1033,8	60,2	63,3	5,5	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash Materiallar	1939,4	1383,9	155,2	71,4	6,5	1,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lar), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash Mahsulotlar	4155,6	17416,6	174,3	4,2 m.	13,9	17,8
Sanoat tovarlari	2807,7	6191,5	67,4	2,2 m.	9,4	6,3
Mashinalar va transport asbob uskunalari	15818,3	50749,1	72,7	3,2 m.	53,1	51,7
Turli xil tayyor buyumlar	776,2	2144,2	34,2	2,8 m.	2,6	2,2
Boshqa tovarlar	491,6	-	-	-	1,6	-
Xizmatlar	299,0	5,6	-	1,9	1,0	-




XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-fevral oylari)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19177,6	10,1 m.
Sabzavotlar va mevalar	11717,7	58,8 m.
Tirik hayvonlar	322,9	5,1 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	186,8	73,2
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	52,6	98,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	15,9	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	9,5	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	1033,8	63,3
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	61,7	19,2
Probka va yog'och-taxtalar	34,8	74,2
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	25,9	11,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	14,9	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1383,9	71,4
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	14,4	2,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	3,9	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	17416,6	4,2 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	14174,4	30,9 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	810,2	4,2 m.
Organik kimyo moddalari	228,8	89,1
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	91,0	63,7
Noorganik kimyo moddalari	46,0	51,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	2,9	7,2
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	6,7	3,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,3	13,7


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	6191,5	2,2 m.
Cho'yan va po'lat	407,9	42,8
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	380,6	162,4
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	110,4	191,0
Rangli metallar	60,9	-
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	48,9	96,1
Ruda bulmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	41,4	11,3
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	33,7	59,2
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	4,9	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	50749,1	3,2 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	7043,9	3,5 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	3250,1	5,7 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	2967,4	2,2 m.
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	2596,1	3,2 m.
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	1793,9	13,9 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1765,4	109,0 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	760,9	134,2
Metallarni qayta ishlash mashinalari	18,4	51,8
Boshqa transport uskunolari	1,4	-
Turli xil tayyor buyumlar	2144,2	2,8 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	433,7	2,9 m.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	28,1	-
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	16,1	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebellar	8,0	60,6

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024- yil yanvar-fevral oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 6,3 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 32,3 % ga kamaydi. **MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI** (yanvar-fevral oylari ming AQSH dollari, ulushi % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

 2024- yil yanvar-fevral oylarida Qashqadaryo viloyati 47 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Niderlandiya, XXR, Ekvador, Germaniya, Pokiston, Rossiya Federatsiyasi, va Yaponiya) jami importning 87,9 % ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-fevral oylari % da)






QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yillar kesimida yanvar-fevral oylari holati)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	7533,6	42909,0	58,8	5,7 m.	1	1
Niderlandiya	47,2	13303,8	21,0	281,9 m.	17	2
Ekvador	141,6	12058,1	101,9	85,1 m.	14	3
Germaniya	630,5	7767,1	80,2	12,3 m.	6	4
Rossiya Federatsiyasi	3630,9	4748,1	98,8	130,8	4	5
Pokiston	455,9	3621,6	5,4 m.	7,9 m.	7	6
Turkiya	4123,6	2540,8	67,7	61,6	3	7
Yaponiya	250,6	1851,0	15,0	7,4 m.	12	8
Litva	57,1	1709,8	45,5	29,9 m.	16	9
Hindiston	421,0	1425,4	71,4	3,4 m.	9	10
Kanada	231,4	1131,0	117,3	4,9 m.	13	11
Qozog'iston	4164,0	660,0	199,2	15,9	2	12
Eron Islom Respublikasi	112,0	623,6	7,3	5,6 m.	15	13
Fransiya	439,7	502,7	3,2 m.	114,3	8	14
Qirg'iz Respublikasi	259,3	494,4	110,1	190,7	11	15
Amerika Qo'shma Shtatlari	276,4	487,6	153,4	176,4	10	16
Birlashgan Arab Amirligi	0,0	363,1	-	-	-	17
Qo'shma Qirollik	27,2	268,3	-	10,0 m.	18	18
Finlandiya	0,0	243,6	-	-	-	19
Italiya	881,1	240,2	121,5	27,3	5	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-fevral oylari ming AQSH doll.)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri 39,9 % bilan 39119,1 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Muborak tumani 0,1 % bilan 71,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-fevral oylari ming AQSH dollarida)




2024- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 5,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (100,0 %) bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 6191,5 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 martaga ko'paydi hamda, importning umumiy hajmidagi ulushi 6,3 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-fevral oylari ulushi, % da)

1571,5 ming
AQSH doll.
ulushi – 25,4 %

1057,1 ming
AQSH doll.
ulushi – 17,1 %

730,5 ming
AQSH doll.
ulushi – 11,8 %



XXR



Rossiya
Federatsiyasi



Turkiya

445,7 ming
AQSH doll.
ulushi – 7,2 %

80,2 ming
AQSH doll.
ulushi – 1,3 %



Ukraina



Yaponiya



2024- yil yanvar-fevral oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3383,8 ming AQSH dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- 1571,5 ming AQSH dollari (25,4 %), Rossiya Federatsiyasi- 1057,1 ming AQSH dollari (17,1 %) va Turkiya- 730,5 ming AQSH dollari (11,8 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.